



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

**BUXORO VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
QOROVULBOZOR TUMAN ADLIYA BO‘LIMI
YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI**

200900, Qorovulbozor tumani, Navoyi ko‘chasi 2-uy
Tel.: (99855) 301-44-64, el.pochta: qorovulbozoryurmarkaz@adliya.uz

**Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarning qonun hujjatlariga
muvofigligi to‘g‘risida huquqiy
XULOSA**

2022-yil 25-iyul

Qorovulbozor tumani

1. Loyihaning turi. Shartnoma.

2. Loyihaning nomi. Pudrat shartnomasi, “**ORIENT XAUS STROY MARKET**” MCHJ Navbaxor MFY hududidagi ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish ishlari to‘g‘risida shartnoma, Umumiy summa 305 500 000 (Uch yuz besh million besh yuz ming) so‘m.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot.

Shartnoma loyihasi Qorovulbozor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun 22.07.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qorovulbozor tuman adliya bo‘limi
yuridik xizmat ko‘rsatish markazi
bosh yuriskonsulti**



X.I.Ubaydov

PUDRAT SHARTNOMASI 77

2022 yil "22" iyul

Qorovulbozor sh.

Qorovulbozor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (keying o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan nizomi asosida harakat qiluvchi **J.Adilov** bir tomondan va **ORIENT XAUS STROY MARKET МЧЖ** (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan Nizomi asosida harakat qiluvchi **S.Hotamov** ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini **Qorovulbozor tuman Navbaxor MFY hududidagi ko'cha chiroqlarini o'rnatish ishlari**, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi **305 500 000 (Uch yuz besh millon besh yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

2.2. Shartnomaning 2.1- bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Oldindan 30% 91 650 000 (To'qson bir million olti yuz ellik ming) so'm

(bir vaqtning o'zida, avans to'lovi bilan bo'lib-bo'lib to'lash va h.k)

3.2. To'lov shakli: **Pul ko'chirish yo'li**

(to'lov talabnomasi, topshiriqnomasi, chek va h.k)

3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, __kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2. Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi:

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi – 2022 yil 22 iyul

Tugashi – 2022 yil 22 avgust

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish; loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish; o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish; ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish; qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish

maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash; qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash; qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidankeyin _____ kunlik muddatda qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish; shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida

nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektini qabul qilib olish.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaz kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun

tafaflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvoohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz __oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo- sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan

hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi:

ORIENT XAUS STROY MARKET

МЧЖ

Peshku tuman

Tel 99-774-77-40

H/R 20208000605084785001

MFO 00440

STIR_306469993

SQB bank Buxoro filiali


S. Hotamov



Buyurtmachi:

Q-bozor Obodonlashtirish boshqarmasi

Begzod ko'chasi 2 uy

Tel 65 364 13 57

SHXV 301821860062327064200110004

STIR 201428852

Qorovulbozor G'aznachilik bo'limi

H/R 23402000300100001010

MFO 00014

STIR 201122919


J. Adilov

